

YASHIL IQTISODIYOT VA UNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Hamroqulov Feruzbek Naimjonovich

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabasi

E-mail: feruzbekhamroqulov925@gmail.com

Annotatsiya: zamonaviy biznes strategiyalarida "yashil" iqtisodiyot va ESG tamoyillarining tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Maqolada ekologik mas'uliyatning nafaqat ijtimoiy burch, balki korxonalar uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishning muhim vositasi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, ESG tamoyillari, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, aylanma iqtisodiyot, energiya samaradorligi, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, raqobatbardoshlik.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida ekologik muammolarning keskinlashuvi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, iqlim o'zgarishi hamda atrof-muhit ifloslanishining ortib borishi iqtisodiy rivojlanishning yangi, barqaror modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatni ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu model orqali iqtisodiy o'sish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, "yashil texnologiyalar"ni joriy etish hamda ekologik muvozanatni saqlash imkoniyati yaratiladi. Natijada jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan birga tabiatni muhofaza qilish ham ta'minlanadi.

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'sir qiymatini baholash zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlar shakllanishi iqtisodiyot fanida yangi davrni boshlab berdi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik jihatlari avlodlar ichida va avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al qatlamlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'yimoqda. Mazkur jarayonda atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirish zaruriyati yuzaga keladi. Bu esa uglevodorod xomashyosining pirovard mahsulot qiymatidagi ulushini qisqartirish asosida iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining poydevorini iqtisodchi olimlar **Ye Lindal** va **J Xikslar** qo'yishgan. Ularning qarashlariga ko'ra, haqiqiy foyda shuki, biz o'zimizdagi asosiy boyligni, ya'ni kapitalni kamaytirmasdan turib daromad topishimiz kerak. Bu yerda kapital tushunchasi ostida nafaqat pul va zavodlar, balki inson bilimi va tabiat boyligi ham tushuniladi. Aynan mana shu nuqtada olimlar o'rtasida qiziqarli bahs tug'iladi: biz qaysi boyligni — tabiatnimi, texnikanimi yoki inson aqlinimi — ko'proq asrashimiz kerak va ularni bir-biri bilan almashtirsa bo'ladimi? Shu savolga javob izlash natijasida barqarorlikning ikki xil yondashuvi shakllandi. Kuchsiz barqarorlik modelida tabiatdan olingan resurs o'rnini inson yaratgan texnologiya yoki bilim bilan to'ldirish mumkin deb qaraladi. Kuchli barqarorlik modeli esa tabiatning o'rnini hech narsa bosa olmasligini uqtiradi va qayta tiklanmaydigan resurslardan tushgan foydaning bir qismini albatta tabiatni tiklashga sarflashni talab qiladi. O'zbekistonda ham ushbu qarashlarni hayotga tatbiq etish maqsadida 2019-yilda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha maxsus strategiya qabul qilingan bo'lib, u bizning kelajakdagi taraqqiyot yo'limizni belgilab beradi.

Shu bilan birga "Yashil" iqtisodiyot tushunchasi o'zining tarixiy rivojlanish yo'liga ega bo'lib, bu to'rta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich 1950-1960 yillarni qamrab olib, iqtisodiyotning atrof-muhitga va insonga salbiy ta'sirini anglab yetish davri hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich 1960-1970 yillarda inson uchun qulay atrof-muhitni saqlash maqsadida ratsional iqtisodiyotni shakllantirish bilan tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich 1980-1990 yillarda rivojlangan mamlakatlarda "yashil" texnologiyalarni jadal joriy etish bosqichi bo'ldi.

To'rtinchi bosqich 2000-2010 yillardan boshlab barqaror rivojlanish konsepsiyasining xalqaro va milliy qonunchilikda mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi.

Hozirgi vaqtda **UNEP** mutaxassislari "yashil" iqtisodiyot tarmoqlarini ikki guruhga, ya'ni "tabiiy kapital" bilan bog'liq tarmoqlar hamda "energiya va resurs samaradorligini oshirish" bilan bog'liq tarmoqlarga ajratishadi. Tadqiqot metodologiyasi esa iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida qiyosiy tahlil va texnologik ehtiyojlarni baholash usullariga tayanadi. Bu ikkala usul orqali haligacha yashil iqtisodiyotga bog'liq bolgan barcha jarayonlarni tubdan organib kelinmoqda.

Jahonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish tashabbusi **UNEP** tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u barqarorlik, adolatlilik, sog'lom sayyora va avlodlar birdamligi kabi hayotiy tamoyillarga asoslanadi. Bu degani, biz bugun foydalanayotgan resurslar kelajak avlodlarning haqi ekanini anglashimiz va Yer sharidagi barcha narsalar bir-biriga zanjir kabi bog'liqligini tushunishimiz shart. Shuning uchun ham yashil iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda uchta asosiy dastakdan samarali foydalaniladi. **Birinchisi** — ma'muriy dastaklar bo'lib, ular qat'iy qonunlar, ekologik standartlar va me'yoriy hujjatlar orqali "o'yin qoidalari"ni belgilab beradi. **Ikkinchisi** — iqtisodiy dastaklar bo'lib, ular yashil biznesni subsidiyalar, soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar orqali rag'batlantiradi, ya'ni tabiatga zarar yetkazmaslikni tadbirkor uchun moddiy jihatdan foydali qiladi. **Uchinchisi** esa — axborot dastaklari bo'lib, ular iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantiradi, mahsulotlarni ekologik markirovkalash orqali odamlarni ongli tanlov qilishga o'rgatadi. Ayniqsa, bugungi kunda "yashil

moliyalashtirish" mexanizmlari bank sektori va xalqaro moliya korporatsiyalari uchun ustuvor yoʻnalishga aylandi. Bu tizim ekologik loyihalarni nafaqat qoʻllab-quvvatlaydi, balki investitsiyalarning uzoq muddatli xavfsizligi va barqarorligini taʼminlashda asosiy poydevor boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kelajakda iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion va energiya tejoychi texnologiyalarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Oʻzbekistonning "yashil" iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi shunchaki orzu emas, balki mamlakatning energetika xavfsizligini taʼminlash va iqlim oʻzgarishlari keltirib chiqaradigan xatarlarga tayyor turish demakdir. Tadqiqotlarimiz shuni koʻrsatadiki, faqatgina quyosh yoki shamol energiyasiga oʻtish yetarli emas; biz jamiyatda energiya isteʼmoli madaniyatini tubdan oʻzgartirishimiz, har bir xonadon va korxonada tejamkor texnologiyalarni joriy etish boʻyicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqishimiz zarur. Shu bilan birga, qurilish sohasida "yashil binolar" standartini kengaytirish, transport tizimida esa ekologik toza elektr vositalariga oʻtish uchun infratuzilmani (quvvatlash stansiyalari va imtiyozli yoʻllar) yaratish kechiktirib boʻlmas vazifadir. Chiqindilarni qayta ishlashni shunchaki utilizatsiya deb emas, balki yangi xomashyo manbai va yangi ish oʻrinlari yaratadigan daromadli soha sifatida takomillashtirish lozim. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat tabiatimizni asraydi, balki milliy iqtisodiyotimizni xalqaro maydonda raqobatbardosh, zamonaviy va har qanday inqirozlarga chidamli tizimga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisherovna B. Z. "YASHIL IQTISODIYOT" GA O'TISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI. – 2025. – T. 1. – №. 6. – C. 164-170.
2. Umarqulovna M. X. et al. YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" //Modern education and development. – 2025. – T. 35. – №. 1. – C. 169-179..
3. Khakimova M. et al. Advancing Sociocultural Competence in Linguistics Education through Global Simulation Enhanced by Natural Language Processing and Speech

Recognition Technologies //Digital Technologies Research and Applications. – 2026. – C. 265-276.

4. Tohir o‘g‘li A. H. “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI //BILGI ÇEŞMESI. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 39-43.